

**IJTIMOY LINGVISTIKADA KOYNELASHISH JARAYONI VA
KOYNE TURLARI TADQIQI**

Qudratova Sayyora Ziyadulla qizi

E-mail: sayyoraqudratova18@gmail.com

O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodim

***Annotatsiya.** Maqolada tilning yashash shakllaridan biri bo‘lgan koynening yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlari yoritilgan. Shu bilan birgalikda, kreol va pidjin tillardan farqli tomonlari xususida fikrlar keltirilgan.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** turli dialektlar ta’sirlashuvi, adabiy til, mintaqaviy standart til, koynelashish, kreollashish, pijinlashish.*

Koyne (yun. κοινή so‘zi – “umumiy” degan ma’noni bildiradi) qadimgi yunon tilining turli dialektlarida so‘zlashuvchi xalqlar uchun umumiy muloqot vositasi vazifasini bajaradigan tildir. Bu atama taxminan eramizdan oldingi IV asrlarda Afinaning markazi bo‘lgan Attikada paydo bo‘lgan [1]. Ellinizm davrlarida ko‘plab olimlar koyneni qadimgi yunon tilining to‘rtta asosiy dialektidan kelib chiqqan deb hisoblashadi. Bu to‘rt dialektning barqaror asosi Attika dialekti ekanligi yunon tilshunosi G.N.Xatzidakis tomonidan isbotlangan. Koyneni lingvistik jihatdan batafsil o‘rganish ishlariga XIX asrning boshlarida kirishilgan.

Koynening paydo bo‘lishi va ijtimoiy vazifalari haqida ko‘plab qarashlar mavjud. Xususan, tilshunoslikka diglossiya tushunchasini olib kirgan C.Fergyson koynening paydo bo‘lishini quyidagicha izohlaydi: “koyne bir manbadan tarqalish natijasida emas, balki turli dialektlar o‘rtasida o‘zaro so‘z

o'zlashtirish va darajalanish jarayoni orqali vujudga keladi"[2]. Boshqa tilshunoslardan farqli ravishda M.Pei koynerejalashtirilgan til ekanligiga alohida e'tibor beradi va u "koynere bir necha lahja egalari o'rtasidagi kelishuv natijasi" [3] degan fikrga keladi. Ba'zi tilshunoslar koyneni "mintaqaviy standart til" sifatida tushunadi. Masalan, R.Hartman va F.Storklar "koynere – siyosiy-ma'muriy jihatdan birlashgan mintaqa uchun umumiy standart tilga aylangan og'zaki dialekt" [4] dir – deb ta'kidlaydilar.

Bizningcha ham, muntazam ijtimoiy aloqalar natijasida ma'lum bir hududda eng ko'p tarqalgan til yoki dialektlarning xususiyatini o'zida mujassamlashtirib olgan til yoki dialektgina koynere darajasiga ko'tarila oladi.

Zamonaviy sotsiolingvistikada koynere aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi hisoblanadi.[5] Koynelar faqat og'zaki muloqot shakli bo'libgina qolmay, yozma shaklga ham ega. Dastlab koynelar savdo aloqalari natijasida shakllangan va savdo-sotiq, harbiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar maqsadida, o'rta asrlarga kelib ilm-fan, san'at, din va huquqshunoslik sohalarida millatlararo muloqot vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Masalan, London koynesi ham kundalik so'zlashuvda, ham shahar boshqaruvi va sud tizimi faoliyatida ishlatilgan. [6] Bundan koynere yozma shaklda ham ishlatilganligi anglashiladi.

Nazariy va leksikografik adabiyotlarda koynelar ijtimoiy-hududiy jihatdan ikki turga ajratiladi: shahar koynesi va viloyat koynesi. Shahar koynesi milliy va ijtimoiy kelib chiqishi har xil bo'lgan shahar aholisining muloqot vositasi sifatida shakllangan og'zaki til bo'lsa, viloyat koynesi shaharlarning qo'shni hududlarning iqtisodiy, madaniy va lisoniy hayotiga ta'siri tufayli shahar koynesi negizida shakllangan hamda kamida viloyat doirasida foydalaniladigan og'zaki til shakli hisoblanadi. Shahar koynesi shahar aholisining turli guruhlar orasida, viloyat koynesi esa ma'lum bir hududda muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shahar aholisi nutqining o'zagini shahar aholisi tomonidan tez-tez ishlatiladigan shahar koynesi tashkil qiladi. Shu bois shahar koynesi alohida

lingvistik tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Bunday adabiyotlarda shahar koynesi paydo bo'lishining uch jihati farqlanadi:

1. Tilning bir necha dialektlarini aralashtirish natijasida
2. Bir yoki bir nechta dialektlarni adabiy til bilan aralashtirish natijasida
3. Bir nechta dialekt, adabiy til va xorijiy til shakllarini aralashtirish natijasida yuzaga keladi.[7]

Masalan, Toshkent koynesi bir tilning turli dialektlarini aralashtirish natijasida yuzaga kelgan. "Olaver" so'zi Surxondaryo viloyatida "oleybir" shaklida qo'llansa, Toshkentda "ovur" shaklida qo'llanadi. Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi surxondaryoliklar nutqida "oluvur" shaklida qo'llanadi. Bu shahar hududida koynega xos so'z hisoblanadi.

Viloyat koynesi esa katta hudud dialektlarining o'zaro ta'sirlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ilmiy adabiyotlarda Dog'iston viloyatidagi Bolmas qishlog'i koynesi avarliklar tili ta'sirida vujudga kelganligi aytiladi. O'zbekiston sharoitida Qiyot qishlog'i koynesi Xorazm adabiy til muhiti tasirida vujudga kelmoqda. XIX asrning 60-70-yillariga kelganda, shahar va viloyat koynelarining turli xil dialektlar ta'siri natijasida ijtimoiy mohiyati kengaydi, mustaqil dialekt sifatida maydonga keldi. [8] Koynelar aholi nutqida asta-sekinlik bilan faol tarzda qo'llana boshlagan. So'zlashuvchilar koynedan faqat muloqot vositasi sifatida emas, balki, iqtisodiy-madaniy sohalarda ham keng foydalanishgan. Bu koynelarning ijtimoiylashuv jarayoni tezlashtirgan.

Koyne lingvofranka va adabiy til oralig'idagi tushuncha hisoblanadi. Chunki koynelar vaqt o'tishi til egalari sonining ko'payishi, til egalari hayot tarzida ko'roq ishlatilishi, ilm-fan, ta'lim va ommaviy axborot vositalarining tiliga aylanib borishi bilan adabiy tilning shakllanishida asos vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, London koynesi London dialekti bilan birgalikda ingliz adabiy tiliga, Pekin koynesi Pekin dialekti bilan birgalikda xitoy adabiy tiliga, Edo koynesi esa yapon adabiy tiliga asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, butun boshli adabiy tillar ham koyne rolini bajarishi mumkin. Masalan, "Ispan tili o'qituvchilari Yevropa Assotsiasiyasi" (AERE)ning ma'lumotlariga ko'ra, ispan

tili hozir dunyoda o'rganilayotgan xorijiy tillar orasida birinchi o'rinni egallaydi, ingliz tili chet tili sifatida emas, balki bir "koynе" sifatida qabul qilinadi.[6]

A.Berdialiyevning fikricha, turkiy tillar doirasida ham adabiy til koynе vazifasini bajargan. Masalan, eski turkiy til barcha eski turkiy adabiy tillar uchun uchun koynе maqomidagi umumiy til vazifasini o'tagan. Bunda qadimgi turkiy yozma adabiy tilning yangi tarixiy sharoitiga moslashgan normalari asos hisoblangan. Bu til jamoasiga islom madaniyati ta'sir ko'rsatib, arab-fors tillaridan diniy tushunchalarni ifodalovchi ko'plab lug'aviy birliklar, hatto ayrim tovush va sintaktik konstruksiyalar o'zlashib, turkiy tillar uchun umumiy baynalmilal lug'aviy fond shakllangan. Bu lug'aviy qatlam, olimlar hisobiga ko'ra, o'sha davr turkiy tillar lug'at tarkibining qariyb 80 foizini tashkil qilgan. Shu bois XV-XIX asrlarda turli turkiy xalqlarga mansub shaxslar nutqiy muloqotda bir-birlarini oson tushungan. Eski ozorbayjon, eski o'zbek, eski tatar va boshqa turkiy yozma adabiy tillar ana shu koynе asosida shakllangan [9]. Bizningcha, eski turkiy tilning boshqa turkiy tillar uchun koynе vazifasini bajarganligi qo'shimcha tadqiqotlar talab qiladi.

Lingvofranka funksional jihatidan koynega o'xshasa ham, ularning o'zaro farqli tomonlari mavjud. Lingvofranka (*ital. lingua franca* – franklar tili) so'zlashuvchilarining hech biriga ona tili hisoblanmaydigan millatlararo muloqot tili bo'lib, ko'pincha og'zaki shaklda paydo bo'ladi. Masalan, ingliz bo'lmagan kishilar uchun ingliz tili yoki o'zbek-tojik bilingvizmida rus tili lingvofranka sifatida qo'llanadi. Koynega lingvofranka o'g'zaki shaklga ega ekanligi, muloqot tili sifatida keng qo'llanishi jihatidan o'xshash, ammo koynе uzoq tarixiy jarayon natijasi ekanligi va lingvofrankaga nisbatan kengroq ijtimoiy funktsiya bajarishi bilan farqlanadi. Ayrim olimlar lingvofrankani ko'lami kichikligini nazarda tutib koynening tarkibiy qismi degan fikrni ham bildiradi.

Ba'zan koynelar pijinga o'xshash vazifa bajaradi, ammo ular bir-biridan shakllanish jarayoni jihatidan o'zaro farqlanadi. Koynе bir tilning turli dialektlari yoki yaqin qarindosh tillar aloqasi natijasida shakllansa, pijin turli mustaqil tillar ta'sirlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Koyneni koynelashish jarayoni yaratadi. Koynelashish atamasi tilshunoslikka U.J.Samarin tomonidan 1971-yilda yangi dialektlarning shakllanish jarayonini tavsiflash uchun kiritilgan [10]. Koynelashish jarayoni natijasida koynelashish jarayoni shakllanish jarayoni, u bir necha bosqichlardan o'tadi. Bular: boshlang'ich koynelashish jarayoni → barqarorlashgan koynelashish jarayoni → kengaygan koynelashish jarayoni → mahalliylik koynelashish jarayoni.

J.Siegel koynelashish jarayonidagi barcha bosqichlarning ketma-ket sodir bo'lishi shart emasligini o'zgaruvchan misollar yordamida tahlil qilgan. Masalan, Fiji Hindiston koynelashish jarayoni boshlang'ich koynelashish jarayoni → mahalliylik koynelashish jarayoni, Guyana Bhojpuri koynelashish jarayoni boshlang'ich koynelashish jarayoni → barqarorlashgan koynelashish jarayoni → mahalliylik koynelashish jarayoni, Yunon koynelashish jarayoni boshlang'ich koynelashish jarayoni → barqarorlashgan koynelashish jarayoni → kengaygan koynelashish jarayoni → mahalliylik koynelashish jarayoni bosqichlaridan o'tish orqali shakllangan. Tilshunos koynelashish jarayonining o'z konsepsiyasida quyidagicha tavsiflaydi [11]: Koynelashish jarayonining boshlang'ich davri beqarorlik davri hisoblanib, bu davrda dialekt yoki tillar o'rtasida kuchli aralashish, turg'un va sodda shakllar mavjud bo'lmaydi va bu bosqich *boshlang'ich koynelashish jarayoni* deb ataladi. Masalan, miloddan avvalgi VI-V asrlarda Yunon tilidagi geterogen dialektlar o'rtasidagi ijtimoiy moslashuv jarayoni boshlang'ich koynelashish jarayonini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi bosqichda boshlang'ich koynelashish jarayonining grammatika, ayniqsa, morfologiyasiga aloqador bo'lgan leksik va so'z shakllari asta-sekinlik bilan rivojlanib, lisoniy shakllari turg'unlasha boshlaydi va buning natijada *barqarorlashgan koynelashish jarayoni* vujudga keladi. Bunga miloddan avvalgi IV asrda Yunonistonda keng tarqalgan Attika dialekti misol bo'ladi.

Uchinchi bosqichda barqarorlashgan koynelashish jarayoni faqatgina aloqa vositasi sifatida emas, balki boshqa sohalarda ham keng qo'llanib boshlaydi. Bu esa koynelashish jarayonini grammatik va stilistik jihatdan qayta ishlashga olib keladi. Natijada *kengaygan koynelashish jarayoni* vujudga keladi. Masalan, bu bosqichga Iskandar va uning vorislari siyosati orqali butun Yunon-Makedoniya imperiyasida tizimli ravishda tarqalgan Attika

dialektining yunon versiyalari yig'indisi misol bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda kengaygan koyneda so'zlashuvchilar soni ortib, lisoniy jihatdan kengayish holati yanada kuchayadi. Natijada kengaygan koynе *mahalliy lashgan koynе* darajasiga ko'tariladi. Masalan, Polibiy va Plutarx kabi mahalliy aholi tomonidan adabiy maqsadlar uchun qabul qilingan yunon koynesi.

Shu bilan birga, J.Siegel koynelashish, pijinlashish va kreollashish jarayonlari o'rtasida quyidagicha farqlar mavjudligini alohida ta'kidlaydi. [12]

1. Pijinlashish va kreollashish turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida cheklangan, koynelashish esa cheklanmagan ijtimoiy vazifa natijasida yuzaga keladi. Pijinlashish va kreollashishda so'zlashuvchi guruhlar o'zaro muloqot uchun har ikkisiga tushunarli bo'lgan, yangi umumiy til shakllantishi lozim, ammo koynelashishda so'zlashuvchilar o'z lahjalaridan foydalanishlari mumkin.

2. Pijinlashish va kreollashish odatda tez va to'satdan¹ ro'y beruvchi jarayonlar sifatida qaraladi, koynelashish esa uzoq davom etadigan bosqichma-bosqich, uzluksiz jarayondir.

3. Pijinlar koynelardan grammatik qurilishi va sodda shaklga egaligi bilan farqlanadi.

Umuman olganda koynе bir necha dialektlar yoki yaqin qarindosh tillar aralashmasining barqaror natijasi hisoblanib, keyinchalik asosiy tilga aylanishi mumkin. Koynening shakllanishi bir necha avlod davomiyligida yuzaga chiqadi. Ko'pincha bu jarayon uch avlod almashinivuda vujudga kelsa, ba'zi hollarda bir avlodni o'zida koynе shakllanishi mumkin. Ammo bu holat kamdan kam uchraydi. Shu boisdan koynе uzoq tarixiy jarayon natijasi deya ta'riflanadi.

Koynе ikki va undan ortiq dialektlarning ta'sirlashuvi natijasida yuzaga kelgan til bo'lsa ham tilning yashash shakllaridan biri deb hisoblashimiz mumkin.

¹ Bizningcha, pijinlashish va kreollashish jarayonlari to'satdan ro'y bermaydi. Ushbu jarayonlar ham ma'lum bir vaqt va zarurat yuzasidan shakllanadi. Bu yerda "pijinlashish va kreollashish koynelashishdan ko'ra tezroq amalga oshadi"– deyish ma'qulroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Normurodov Sotsiolingvistika. – Termiz, 2008. 27-bet.
2. C. A.Fergyson The Arabic Koine. Lenguage, 1959 – 35(4): 616-30.
3. M.Pei Glossary of linguistic terminology. New York: – Anchor, 1966.
4. R. R. I. C. Hartmann., F. C.Stork Dictinary of language and linguistics. Applied Science Publishers. – London,1973.
5. Sh.Usmonova., N.Bekmuxammedova., G.Iskandarova O‘quv qo‘llanma. – Toshkent,2014. 18-bet.
6. Z.Xolmonova Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2020. – B,27.
7. С.Евгений Русская речь полилингвокультурном пространстве города: структура и норма. С.11.
8. R.Normurodov Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Termiz, 2008. 28-bet
9. A.Berdialiyev O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi. Toshkent–2019. 51-bet.
10. Samarin, William, 1971. Salient and substantive pidjinization in Dell Hymes, (ed.), pidjinization and Creolization of languages. Cambridge: Cambridge University Press: 117-140.
11. Quyida J.Siegelning qisqacha mazmundagi fikrlari keltirilgan: «Koinés and koineization». Language in Society, 1985. – №14. – PP. 373-375; «Wai: A Malaitan language in Fiji». In FOCAL II: Papers from the Fourth International Conference on Austronesian Linguistics, Paul Geraghty, Lois Carrington and Stephen Wurm (eds.), 1986.– PP. 456; «The development of Fiji Hindustani». In Richard Barz and Jeff Siegel (eds.), 1988. – PP. 147-148; «Introduction: Controversies in the study of koinés and koineization». In Jeff Siegel (ed.), 1993. – PP. 6-7.
12. J.Siegel 1993b. “Dialect contact and koineization: A review of Dialects in contact by Peter Trudgill”. International Journal of the Sociology of Language: 119.